

NORBOY XUDOYBERGANOVNING TANQIDIY FAOLIYATI

Jalilova Shaxnoza Ergashali qizi

Farg‘ona davlat universiteti

Filologiya va tillarni o‘qitish:

o‘zbek tili yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligi taraqqiyotida Norboy Xudoyberganovning o‘rni hamda nasriy asarlarni tahlil etish mahorati borasida so‘z boradi. Bundan tashqari, munaqqid ijodida zamonaviy o‘zbek she‘riyati muammolarining yorqin talqini tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Norboy Xudoyberganov, adabiy tanqid, adabiyotshunoslik, muammo, muhokama, bahs-munozara, tahlil mahorati.

ABSTRACT

This article discusses the role of Norboy Khudoyberganov in the development of Uzbek literary studies and criticism, as well as his skill in analyzing prose works. In addition, the vivid interpretation of the problems of modern Uzbek poetry in the work of the critic is analyzed.

Keywords: Norboy Khudoyberganov, literary criticism, literary studies, problem, discussion, debate, analytical skills.

Norboy Xudoyberganov 1938-yil 15-mayda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Amudaryo tumanining Qipchoq qishlog‘ida tug‘ildi. Filologiya fanlari nomzodi (1965), doktori (1978), professor(1989). Toshkent davlat universiteti (hozirgi O‘zMU) o‘zbek filologiyasi fakultetini tugatgan (1955-1960), Qoraqalpog‘iston pedagogika universitetining qoraqalpoq tili va adabiyoti kafedrasida o‘qituvchi(1960-1962), Moskva davlat universitetida aspirant (1962-1965), O‘zbekiston FA Til va adabiyot institutida kichik ilmiy xodim (1966-1967), Toshkent davlat universitetida o‘qituvchi, dotsent, professor (1967-1995) bo‘lib ishlagan.

“Ehtiros to‘lqinlari” (1970), “Kashfiyotlar yo‘lida” (1972), “Yoshlik ilhomlari”(1975), “Cho‘qqilar chorlaydi”(1975), “Parvoz davom etadi”(1980), “Vijdon da‘vati”(1981), “Haqiqat yog‘dulari”(1982), “Seni o‘ylayman, zamondosh”(1983), “O‘z dunyosi, o‘z qiyofasi”(1986), “Ishonch”(1988), “O‘zbek sovet adabiy tanqidchiligi” (1990, oliy o‘quv yurtlari filologiya fakultetlari talabalari uchun darslik, A.Rasulov bilan hamkorlikda), “Ham inson, ham tabiat”(2001), “Mehru muhabbat yo‘llarida”(2001), “Dil-u til sehri”(2002), “Badiiy tahlil sehri”(2008) kabi kitoblar va 500 ga yaqin maqolalar muallifi. “Yozuvchi imkoniyatining badiiy

ifodalanishi” va “Hayot haqiqati va badiiy obraz” mavzularida ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan.

Tanqidchi aksar adabiy-tanqidiy maqolalarida o‘ziga va kitobxonlarga savol bilan murojaat etishni xush ko‘radi va maqola davomida ularga o‘zi javob izlaydi, topganlarini kitobxonlarga havola qiladi. “Kurashchanlik haqiqatda” maqolasida qahramonlarning hayotsevarlik va o‘z maqsadlariga intilish ruhi adabiyotimizda qay darajada aks ettirilgan, uning manbayi nimada, degan savolga javob izlaydi, ayni vaqtda, savolga hamma vaqt ham istalgan javobni topish oson emasligini adolat bilan qayd etadi. Norboy Xudoyberganov ayrim tanqidchilarning badiiy adabiyotda kurashchanlik faqat ijobiy qahramon xarakterida aks etadi, degan fikri biryoqlamadir, degan xulosaga keladi. Salbiy tiplar ham kurashchanlik ruhini ifodalashga xizmat qilishini ta’kidlaydi. Tabiatida illatlar mujassamlashgan kishilar qiyofasini ochib tashlanishida ham kurashchanlik ruhi aks etishini qator asarlardagi qahramonlar obrazini tahlil etish asosida dalillaydi.

Norboy Xudoyberganov o‘z ijodiy tajribasidan kelib chiqib, tanqidchi, albatta, har bir asarni tanqid qilishi, uning faqat kamchiliklarini ochib berishi kerak, degan fikr bilan ishlash mumkin emasligini yoki yozilgan har bir asarni faqat madh etish kerak, degan fikrdan yiroqda. Bu holat yo ofarinbozlikka yoki kamsitishga olib kelishini ta’kidlaydi.

Adabiyotshunos Norboy Xudoyberganov ishlarida keskin talabchanlik ruhi sezilib turadi. U tanqidchilarni adabiy jarayonni to‘g‘ri talqin qilishga da‘vat etadi va o‘z davrining badiiy ijodkorlaridan ham shuni talab qiladi.

Munaqqid Norboy Xudoyberganov bir qancha shoir-yozuvchilar she‘rlarini, asarlarini tanqid va tahlil qilgan. Jumladan, shoir Abdulla Oripov ijodini atroflicha tahlil etishga harakat qilgan. U shoir she‘rlarining o‘ziga xos xususiyatlarini, shoir asarlarining g‘oyaviy-badiiy yo‘nalishini, uning tafakkuri kengligini, mahoratini haqqoniy ko‘rsatishga uringan, ijodidagi poetik dalillash masalasiga ahamiyat bergan. Olimning Abdulla Oripov ijodiga baho berishida ko‘proq tanqidiy ruh sezilib turadi. U shoir she‘rlaridagi yutuqlarni yuqori baholaydi, maqtovdan ko‘ra ko‘proq kamchiliklarini ko‘rsatib, undan qutulishga da‘vat etadi, shoir ijodining qadri uchun kurashadi. Munaqqid shoirning har bir she‘ridan yangilik, yangi bir kashfiyot qidiradi. “...Abdulla Oripov deyarli bir maromda yuksak talabchanlik bilan qalam tebratib, ijodiy taraqqiyot yo‘lidan ildam qadam tashlaganini, oz va soz yozishning qat’iy qonuniga rioya qilganini, eng muhimi, shoir kitobxonlarning ma’naviy kamolotini ta’minlashga yo‘naltirilgan obrazlar yaratish g‘amini yedi va buni o‘zining “Avlodlarga maktub”, “O‘ylarim”, “Malomat toshlari” kabi she‘rlari orqali isbotlab bera oldi”- deydi o‘zining “Haqiqat yog‘dulari” kitobida.

Tanqidchi shoirning o‘zbek she‘riyatiga bamisoli yulduzdek kirib kelganini, jahon va o‘zbek adabiyoti an‘analarini ijodiy o‘rganib, o‘zlashtirganini va o‘ziga xos

ajoyib she'rlar yaratganini e'tirof etadi: "Qizig'i shuki, Abdulla Oripovning shunday she'riyat namunalarini kashf etganini e'tirof etganmiz, ayni choqda, ayrim tanqidchilarimiz, hatto ba'zi tajribali ijodkorlarimiz shoirning bir qancha she'rlaridagi lirik qahramonlar ojiz, notavon, o'z yo'lini topolmayapti, nuqul iztirob chekadi, ruhiy g'alayonlar ichida yuradi, hayotning yorug', nurli tomonlarini ko'rmaydi, deb yozishdi... Hatto "Noviy mir" jurnalida bosilgan "Tilla baliqcha" she'rida voqeligimiz hovuz timsoli orqali talqin etilib, g'oyaviy chalkashlikka yo'l qo'yildi, degan fikr ham aytili. Aslida bu aybning hech qanday asosi yo'q edi", deb shoir ijodiga berilgan bahoni rad etadi va uning hayot haqiqatidan chekinmaganini, g'oyaviy chalkashliklarga yo'l qo'ymaganini keyingi asarlarida o'zini ko'rsatganini ta'kidlaydi.

Norboy Xudoyberganov Erkin Vohidov ijodini tahlil qilar ekan, u taniqli shoir, uning kamchiklari yo'q, hammasi bir tekis, mazmunli, o'quvchini zeriktirmaydi, uning qalbiga jo bo'la oladi, demaydi. Aksincha, o'z ijodi bilan el obro'siga erishgan, hurmatga sazovor, yetuk shoirlar ijodini xolisona tahlil qiladi. Agar o'zi kutganday, ya'ni shoir yoki yozuvchining salohiyati darajasida yozilmagan bo'lsa, uni bemalol tanqid qiladi, kamchiliklarini ko'rsatadi.

Olim : " Erkin Vohidovning "Yoshlik devoni"dagi bir qancha she'rlar ham fazilatlar bilan ko'zga tashlanib turadi. Dastavval, "Davron yuki", "Kiprigingdan o'q uzib" she'rlarini nazarda tutyapman. Ulardan birida muhabbat haqida, ikkinchisida insonning zamon, haqiqat oldidagi burchi to'g'risida bahs yuritiladi. Birinchisida lirik qahramonning yor vasliga yetish borasida chekkan iztiroblari ifodalanadi, sevgining noyob va nodir fazilatlar ulug'lanadi, shoir bizni baxt-saodat, muhabbat tantanasi haqida o'ylarga toldiradi... Har ikkala she'rdam ham bayonchilik bor, lekin ular hukmronlik qilmaydi. Mavzu she'riy vosita va uslub orqali tadqiq etilmasa, yuksak natijaga erishish mumkin emas. To'g'ri, "Yoshlik devoni"dagi deyarli barcha she'rlarda ravonlik, musiqiylik mavjud, ularni o'qiganingizda satrlarga "qoqilib", "surilib" ketmaysiz, shuning o'zi ham muallifning fazilati emasmi?!".

Munaqqid Erkin Vohidov ijodini tahlil qilish jarayonida, boshqa munaqqidlarning tahlillariga ham munosabat bildiradi. Jumladan, Ibrohim G'afurov tahlillari haqida to'xtalib o'tadi, unga e'tirozlarini bildiradi. Hamma she'r ham har doim kamchiliksiz yozilavermaydi. Har qanday yetuk ijodkor ham qayerdadir xato qilishi mumkinligini aytadi va Ibrohim G'afurovning bu boradagi tahlillarini tanqid qiladi. Munaqqidning "Yoshlik devoni"dagi ravonlikka, musiqiylikka mahliyo bo'lib, g'oyaviy-badiiy salmoqqa yetarli e'tibor bermaganini tanqid qiladi. Shunday o'tkir didli, qobiliyatli tanqidchining "Yoshlik devoni"da hech qanday qusur ko'rmasligi mumkin emasligini, devonning faqat ijobiy tomonlariga e'tibor berilmaganini ta'kidlaydi.

Erkin Vohidov she'rlarining tahlili jarayonida asar qahramonlarning holati, xarakteriga ham e'tibor beradi. Yoki shoir tanlagan obrazlar hayot haqiqatiga mos

tushadimi, tushmaydimi, bo‘lishi mumkinmi, mumkin emasmi – hamma-hammasini e’tibordan qoldirmaydi. Va munaqqid o‘z uslubiga ko‘ra shunday izoh beradi:

“Qarang-a, butun dunyoni titratgan jahongirni oddiy bir satarosh daf qiladi! Tabiiyki, bunday hodisaning real hayotda ro‘y berishi amrimaholdir. Shuning uchun Erkin Vohidov she’riy hikoyani rivoyat deb ataydi. Lekin rivoyat ham o‘quvchini ishontiradigan darajada hayotiy mazmun kasb etishi kerakmasmi?!..”

Adabiyotshunos olim, tanqidchi Norboy Xudoyberganovning nasriy asarlarni tahlil etish mahorati ham e’tiborlidir. Xususan, A. Qahhor("Sarob", "O‘g‘ri", "Bemor", "Anor" va h.k.), Odil Yoqubov("Diyonat", "Oq qushlar, oppoq qushlar"), P. Qodirov ("Yulduzli tunlar", "Olmos kamar"), O‘tkir Hoshimov ("Nur borki, soya bor", "Bahor qaytmaydi", "Dunyoning ishlari"), O‘lmas Umarbekov ("Kurort", va yana bir qator yozuvchilar asarlarini tanqidiy tahlil etadi.

Olim nasriy asarlar tahlilida har bir asar qahramoniga alohida tavsif berar ekan, u qahramonning boshqa asar qahramoni bilan o‘xshash va farqli tomonlarini ham aytib o‘tishni unutmaydi. Ularning xarakterini bir-biriga qiyoslaydi. Asar qahramoni xarakteri hayotiyimi, hayotiy emasmi, uning asardagi boshqa qahramonlar bilan munosabati yoki asar voqealari to‘g‘ri keladimi, yo‘qmi, bo‘lishi mumkinmi, mumkin emasmi – hamma-hammasini bittalab tahlil qiladi. U asar tahlili jarayonida har bir asardan yangilik qidiradi, yozuvchi nimani kashf qilganligini ko‘rsatadi va hamma ijodkordan shuni talab qiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Norboy Xudoyberganov adabiy tanqidchilikda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan ijodkordir. U nasriy, she’riy va dramatik asarlarni tahlil qilganda kitobxon ko‘nglidagi gaplarni topib aytadi, e’tirozini, maqtovini o‘z tilidan qog‘ozga tushiradi. U asarlarni tahlil qilar ekan, kitobxon bilan suhbatlashadi, savollar beradi va o‘z o‘rnida savollarga o‘zi javob beradi. Muammolarni, kamchiliklarni chuqur, teran tahlil qiladi, dadil turib ko‘rsatib bera oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B. Karimov, U. Normatov va boshqalar "O‘zbek adabiy tanqidi"[Antologiya], -T., 2011.
2. B. Nazarov, A. Rasulov, Q. Qahramonov, Sh. Axmedova "O‘zbek adabiy tanqidchiligi tarixi", -T., 2012.
3. N. Xudoyberganov "So‘z kurashga chorlaydi", -T., 1978.
4. N. Xudoyberganov "Haqiqat yog‘dulari", -T., 1985.
5. N. Xudoyberganov "Ishonch", -T., 1988.
6. N. Xudoyberganov "Seni o‘ylayman, zamondosh", -T., Adabiyot va san’at, 1987.
7. S. Eshpo‘latova "Munaqqid Norboy Xudoyberganovning o‘zbek adabiy tanqidchiligida tutgan o‘rni" dissertatasiyasi, -T., 2023.

8. Худойберганов Н. Гражданлик моҳияти. “Шарқ юлдузи” журнали, 1984 йил 4-сон.
9. “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси, 1983, 11 февраль
10. Норбой Худойберганов. “Қахрамоннинг маънавий олами”, “Шарқ юлдузи”, 1982, №11
11. Дониёр Бегимкулов. Ҳақ сўз соҳиби. /Худойберганов Н. Бадиий таҳлил сеҳри/. Тошкент– 2008.

